

**ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA EPISTOLYAR SHAKLNING
BADIY FUNKSIYASI**

**ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФУНКЦИЯ ЭПИСТОЛЯРНОЙ ФОРМЫ В
СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

**THE ARTISTIC FUNCTION OF THE EPISTOLARY FORM IN MODERN
UZBEK LITERATURE**

Jo‘rayeva Risolat Bekmurod qizi

FarDU 1-kurs magistranti

Annotatsiy

Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida epistolyar shaklning badiiy funksiyalari, uning psixologik, estetik va uslubiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Turli adiblarning asarlaridan misollar keltirilib, epistolyar shakl orqali obrazlar ruhiy olamini yoritish, syujetni dinamik rivojlantirish kabi jihatlar ko‘rsatib beriladi.

Аннотация

В данной статье анализируются художественные функции эпистолярной формы в современной узбекской литературе, её психологические, эстетические и стилистические возможности. На примерах из произведений различных писателей демонстрируются такие аспекты, как раскрытие духовного мира образов посредством эпистолярной формы и динамическое развитие сюжета.

Abstract

This article analyzes the artistic functions of the epistolary form in contemporary Uzbek literature, examining its psychological, aesthetic, and stylistic potential. Examples from works of various authors are presented to illustrate aspects such as illuminating characters' inner worlds through the epistolary form and dynamically developing the plot.

Kalit so‘zlar: epistolyar shakl , zamonaviy adabiyot, badiiy funksiyalar , ichki monolog, maktub, obraz psixologiyasi.

Ключевые слова: эпистолярная форма, современная литература, художественные функции, внутренний монолог, письмо, психология образа.

Keywords: epistolary form, contemporary literature, artistic functions, internal monologue, letter, character psychology.

Epistolyar shakl adabiyotda qadimiy usullardan biri bo‘lib, maktub, kundalik, xotira shaklidagi yozuvlar orqali syujetni rivojlantirishda ishlatiladi. Bu shakl insonning ichki kechinmalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri, samimiy tarzda yetkazishda muhim vosita hisoblanadi [1:47]. G‘arb adabiyotida bu shakl “epistolary novel” sifatida rivojlangan bo‘lsa, Sharq adabiyotida, jumladan, o‘zbek adabiyotida ham o‘ziga xos tarzda shakllangan. Zamonaviy o‘zbek adiblarining ijodida epistolyar shakl orqali ijtimoiy, ma’naviy va shaxsiy muammolarni ko‘rsatish ancha kuchaydi.

Epistolyar shakl namunalarning ildizlari antik davrlarga borib taqaladi. Maktub masofadan muloqot qilishning yagona shakli bo‘lgani uchun, buni yozishga jiddiy qaralgan [2:89-90]. Ular ritorika qoidalariaga rioya qilinga holda bitilgan. Shu bois Epikur, Seseron, Seneka kabilarning maktublari epistolyar asarning nodir namunalari aylangan.

O‘rta asrlarga kelib Fotiy, Avgustin, Lyuter kabi diniy arboblarning maktubning didaktik imkoniyatlaridan keng foydalanib o‘z qavmlariga turli masalalarni tushuntirganlar [3:117]. Epistolyar asarning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi namunasi sifatida A.Navoiyning “Munshaot” asarini keltirish mumkin. Adabiyot taraqqiyotining keyingi davrlarida shaxslararo bevosita yozishmalar ham ahamiyatini yo‘qotmagani holda, adabiy asarlarni maktub shaklida yozish keng ommalashdi. Masalan., “Fors xatlari” (Monteske), “Yuliya yoki yangi Eloiza ” (J.J.Russo), “Y osh Verterning iztiroblari” (Gyote), “Kambag‘al kishilar” (F.M.Dostoyevskiy) kabi qator asarlar maktub shaklidan samarali foydalanilgan.

O‘zbek adabiyotida ham bunday asarlar talaygina: “Sevgilim, sevgilim” (O‘.Umarbekov), “Cho‘l havosi” (O‘.Hoshimov). Xat-ijtimoiy-siyosiy hayotda ham, shaxsiy hayotda ham g‘oyatda muhim hodisadir. Hukmdorlar o‘rtasidagi siyosiy yoki

diplomatik maktublar butun-butun xalqlar, davlatlar hayotida muayyan rol o'ynagan. San'at va madaniyat vakillari o'rtasidagi maktublarda muhim ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar o'rtada tashlangan va hal etilgan. Shaxsiy maktublar esa, odamlar o'rtasidagi do'stlik, mehr-oqibat, sadoqat in'ikosidir. Hayotda uchraydigan mana shu xat turlarining barchasi badiiy adabiyotga olib kirilgan. Professor N.Rahmonov yozishicha, miloddan oldingi III asrda Markaziy Osiyoda hukmdorlik qilgan Botir Tangriqul ning Xitoy malikasiga yozgan maktublari va malikaning Botir tangriqulga yozgan maktublari ma'lum. D.Urnov qarashlariga ko'ra, epistolyar badiiy adabiyot hayotiy maktublar asosida shakllangan, bunda xabar mazmuni-hikoyaga, maktub yozuvchilaradabiy qahramonlarga aylangan, xat adabiy shartlilikka muvofiqlashtirilgan shakllangan, bunda xabar mazmuni-hikoyaga, maktub yozuvchilar-adabiy qahramonlarga aylangan, xat adabiy shartlilikka muvofiqlashtirilgan. Jahon adabiyotida bo'lgani kabi, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida ham maktublarni muayyan janrdagi asarlar tarkibiga kiritish usuli ham bor. Bu, avvalo, xalq og'zaki ijodi dostonlarida qo'llangan. "Alpomish" dostonida Barchinning yozgan xati syujetidagi hal qiluvchi momentlardan biridir.

Zamonaviy o'zbek nasrida epistolyar usul dastlab Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida muvaffaqiyat bilan qo'llandi. Adib kerakli o'rinlarda maktublarning matnini to'liq keltirgan. Romanda maktub syujetning muhim momentlarida hal qiluvchi komponent o'laroq maydonga chiqadi. Syujet rivojining asosiy harakatlantiruvchi epizodlari bo'lgan Otabek va Mirzakarimqutidorning omon qolishi, Otabek va Kumush munosabatlaridagi murakkabliklar bevosita maktub bilan bog'langan. Abdulla Qodiriy bu borada xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti va jahon nasri an'analaridan ta'sirlangani, shubhasiz. O'zbek zamonaviy nasrida faqat maktubga asoslangan epistolyar janr namunalari ham yaratildi. Bu sirada Maqsud Qoriyevning "Oydin kechalar", Abduqahhor Ibrohimovning "Uyqu kelmas kechalar", O'lmas Umarbekovning "Qizimga maktublar", Xurshid Do'stmuhammad "Hijronim mingdir mening", Benazir Muhammadning "Yobondan gulxonaga maktublar"

asarlarni sanab o'tish mumkin. O'lmas Umarbekov asarini istisno qilganda, sanab o'tiladigan barchasi o'zbek nomachiligi va jahon adabiyotida bo'lgani kabi ishqiy maktub yoki yozishmalardan iborat. Milliy adabiyotimizdagi ilk maktub-roman 2001-yilda nashr etilgan Abduqahhor Ibrohimovning "Uyqu kelmas kechalar" asaridir. Ushbu epistolyar roman sof ishqiy mazmunda bitilgan. Iqbol Mirzo qalamiga mansub "Bonu" ijtimoiy-psixologik romani milliy adabiyotshunoslikda bu boradagi ikkinchi tajribadir. Roman strukturasi o'ziga xos: u bosh qahramon tomonidan noma'lum yozuvchiga telegram ijtimoiy tarmog'i orqali muayyan ijtimoiy-tarixiy davrga oid, milliy-maishiy hayotga oid juda ko'p haqiqatlarni qalamga olgan. Jahon adabiyotida yaratilgan aksariyat epistolyar romanlardan farqli ravishda o'zbek adibi voqealarga umuman aralshmaydi, syujet zanjirini tashkil qilgan voqealar Bonu tarafidan hikoya qilinadi. Mumtoz adabiyotdagi nomalarda ham, jahon adabiyotidagi epistolyar asarlarda ham ko'pincha ishqiy motiv ustuvorligi ko'zga tashlanadi "Bonu" da sevgimuhabbat bilan bog'liq voqealar keng o'rin tutsada, umumiy mazmun g'oyasiga ko'ra uni ijtimoiy roman deyish to'g'ri bo'ladi. Iqbol Mirzo milliy tariximizning murakkab bir davrini katta mahorat bilan epistolyar janrdagi badiiy gavdalendirdi [:28].

Epistolyar shakl ko'plab zamonaviy yozuvchilar tomonidan o'ziga xos badiiy Epistolyar shakl zamonaviy o'zbek adabiyotida quyidagi badiiy funksiyalarni bajaradi:

- Ichki dunyoni ochish: Qahramon o'z ichki dunyosini maktub yoki kundalik orqali ifodalaydi, bu esa obrazning ruhiy portretini boyitadi.
- Dialog va monolog uyg'unligi: Epistolyar shaklda suhbatdosh yo'qligi sababli monologik uslub asosiy o'rinni egallaydi, biroq u dialogik tus olgan bo'ladi.
- Vaqt va makonni kengaytirish: Qahramon o'z xotiralarini yoki kelajakdagi orzularini maktub orqali bayon etadi, bu esa vaqt oralig'ini kengaytiradi.
- Syujetni dinamiklashtirish: Maktub yoki kundaliklar orqali syujet burilishlar oladi, yangi voqealar kiritiladi.
- Estetik samimiylik: Bu shakl o'quvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot hissini uyg'otadi, natijada asar ta'siri oshadi [5:75].

O‘zbek adabiyotshunosligida epistolyar shaklga oid alohida izlanishlar yetarlicha ko‘p emas. Ammo ayrim tadqiqotlarda (Q. Karimov, G. G‘ulomova, D. Jo‘rayev) bu shaklning funksional imkoniyatlari haqida fikrlar yuritilgan. Ayniqsa, G‘. G‘ulomovaning “O‘zbek nasridagi zamonaviy shakl va janrlar” asarida epistolyar shaklning psixologik realizm bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Epistolyar shakl zamonaviy o‘zbek adabiyotida badiiy-estetik imkoniyatlari boy uslubiy vosita sifatida faol qo‘llanilmoqda. Bu shakl orqali yozuvchi nafaqat syujetni boyitadi, balki inson ruhiyatini nozik va chuqur yoritishga erishadi.

Adiblar ushbu shakl yordamida jamiyatdagi muammolarni, shaxsiy kechinmalarni va universal g‘oyalarni ifodalaydi. Kelajakda ushbu shaklga oid ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarurati dolzarb bo‘lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES)

1. Karimov Q. “Adabiy jarayon va zamonaviy adabiyot”. – T oshkent: Fan, 2012. B.47.
2. G‘ulomova G. “O‘zbek nasridagi zamonaviy shakl va janrlar”. – T oshkent: Akademnashr, 2016. B. 89-90.
3. Erkin A‘zam. “Saylanma”. – T oshkent: Y angı asr avlodi, 2020. B. 117.
4. Muhammad Ali. “Qora kitob”. – T oshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 2019. B. 28.
5. Davron Xurshid. “Qadim kunlar sadosi”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2015. B. 75.